

UDK: 330.13(S75.1)

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi

Оглавление авторферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам

Dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on economic sciences

Ganiyev Baxtiyor Zulfiqor o'g'li
Ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi
muvozanatni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari.....3

Ганиев Бахтияр Зульфיקор угли
Основные направления обеспечения равновесия
между спросом и предложением рабочей силы.....29

Ganiyev Baxhtiyor Zulfikor ugli
The main directions of ensuring the equilibrium
between the demand and supply of labor.....57

E'ton qilingan ishlar ro'yxati
List of published papers
Список опубликованных работ.....62

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/30.01.2021.11.16.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

GANIYEV BAXTIYOR ZULFIQOR O'G'LI

ISHCHI KUCHI TALABI VA TAKLIFI O'RTASIDAGI MUVOZANATNI
TA'MINLASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI



[Handwritten signature]

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/Iqt/1757 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtorferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash web-sahifasida (www.itsue.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirildi.

Ilmiy rahbar: Mamaraximov Bekzod Erkinovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponenlar: Usmanov Anvar Saidmaxmudovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mo'minov Nozim Gaffarovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot: Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/01.2021.I.16.03 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil 09.09.2024-dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, I.Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99872) 239-28-72; faks: (99872) 239-01-49, (99872) 239-43-51. e-mail: info@itsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 49-uy. Tel.: (99872) 239-88-72; faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@itsue.uz.

Dissertatsiya avtorferati 2024-yil 09.09 kuni tarqatildi.
(2024-yil « 9 » oyi) 999 raqamli reyestr bayonnomasi).



S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

B.D. Xajiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida mehnat bozoriga, ayniqsa ushbu bozordagi taklif hamda talabni muvozanatlashirishga bo'lgan tabiiy zaruriyat ortib bormoqda. Muvozanat haddan tashqari ishsizlik va ishchi kuchi tanqisligini minimallashtiradi, ishchilarni tarmoqlar bo'yicha samarali taqsimotiga ko'maklashadi, doimiy ish haqi darajasini saqlaydi, ijtimoiy keskinlikni pasaytiradi, aholi turmush darajasini oshiradi va iqtisodiy tengsizlikni kamaytiradi. Jahonda vujudga kelayotgan geosiyosiy hamda geoiqtisodiy beqarorliklar sabab ishchi kuchi bozorida talab va taklif o'rtasidagi muvozanatning buzilish holatlari kuzatilmog'da. Shuningdek, "2023-yilda global ishchi kuchi taklifiga nisbatan bo'sh ish o'rinlarining yetishmaslik darajasi ayollarda (14,5%) erkaklarga nisbatan (9,8%) yuqori natijani qayd etdi"¹. Bu esa, o'z navbatida, ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muammosining dolzarb ahamiyat kasb etishini namoyon etmoqda.

Global integratsiya tufayli yuzaga kelgan beqarorlik kuchayib borayotgan bir sharoitda butun dunyoda ishchi kuchi bozorida muvozanatni saqlash masalalariga alohida e'tibor qaratilayotgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasida mehnat resurslarini samarali taqsimlash, muvozanatning ish haqi darajasiga ta'siri, jamiyatdagi ijtimoiy keskinlikni pasaytirish, turmush darajasini oshirish va iqtisodiy rivojlanish darajasini pasaytirish orqali inson kapitalidan samarali foydalanish, tengsizlik, yetarli miqdordagi malakali ishchi kuchi bilan ta'minlash, innovatsiyalar va texnologik rivojlanishni ta'minlash, investitsiyalarni jalb qilish va eksportni rivojlantirishda moslashuvchan siyosiy choralarini yaratish masalalariga bu boradagi ilmiy tadqiqotlarda ustuvorlik berilmoqda.

Yangi O'zbekistonda barqaror iqtisodiyotni shakllantirish, ish qidiruvchilar va yollovchilarni muvaffaqiyatli birlashtirish va ularning ahvolini yaxshilash masalalariga ahamiyatli e'tibor qaratilmoqda. "O'zbekiston 2040-yilgacha ijobiy demografik dividend yaratadigan juda katta vaqt gorizontiga ega"². Ishchi kuchi resursi soni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchilik qilib kelayotgan bo'lib, ularning iqtisodiyot tarmoqlarida samarali bandligi ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotda sezilarli ro'l o'ynaydi. Shu sababli, ishchi kuchi bozorini talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash asosida rivojlantirish dolzarb muammo hisoblanadi. Ishchi kuchi bozori muvozanatining mazmuni va nazariy asoslarini kengaytirish, ishchi kuchi taklifi xususiyatlarini uning talabi bilan jinsi, miqdori, sifati, hududi va sohasi bo'yicha kesishishi orqali o'rganish, talab va taklif mutanosibligini mintaqalar bo'yicha miqdoriy jihatdan guruhlash hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bundan tashqari, tabirkorlik subyektlarini ular yaratadigan ish o'rinlari soniga qarab toifalarga ajratish, hamkorlik shartnomalari orqali hududiy bandlikni rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish, o'z raqamli muqobil prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish uchun ishchi kuchi, iqtisodiy faol aholi va bandlikning

¹ International Labor Organization "ILO Monitor on the world of work" Eleventh edition, 31 May 2023, 5 p.

² World Bank Group "Growth and job creation in Uzbekistan: An in-depth diagnostic", 28 December 2018, 5 p.

avtoregressiya modellari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ishchi kuchi bozori uchun muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2017-yil 24-maydagi PF-5052-son "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 30-avgustdagi PQ-366-son "Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 15-martdagi PQ-167-son "Nuroniyatni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning turmush darajasi oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-iyuldagi 279-son "20 mingga tadbirkor - 500 ming malakali mutaxassis" dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2022-yil 20-apreldagi 203-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarning bandligiga ko'maklashishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 8-noyabrda 650-son "Mahallalarda xotin-qizlarning bandligini ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 22-dekabrda 1011-son "Ishga joylashtirishga muhtoj aholi sonini aniqlash, shu jumladan, uy xo'jaliklarini mehnat bilan bandlik masalalari bo'yicha o'rganishlar o'tkazish, shuningdek, mehnat resurslari, bandlik va aholini ishga joylashtirish balansini shakllantirish metodikasini takomillashtirish to'g'risida"gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy va qonunchilik matnlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi ma'lum darajada yordam beradi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ishchi kuchi bozorida taklif va talabni muvozanatlashirish masalalari D.Marie, Georgy J.Borjas, Campbell R. McConnell, Stanley L.Brue, David A.Macpherson, A.Krause, U.Michael va T.Lubik, S.Machin va A.Manning, J.M.Keynes, U.Blien, F.Hirschenauer va Thi Hong Van kabi xorijiy iqtisodiyot sohasi vakillari tomonidan tadqiqotning asosiy yo'nalishi yoki bir qismi sifatida tahlil etilgan³.

³ Marie Drolet "Linking labor demand and supply: Job vacancies and the unemployed", Insights on Canadian Society Journal ISSN 2291-0840, Statistics Canada, 2017, 19 P; Georgy J. Borjas "Labor economics" Published by McGraw-Hill Education, 2 Penn Plaza, New York, NY 10121. Copyright © 2016, 84 p; McConnell, Campbell R. Brue, Stanley L., Macpherson, David A., "Contemporary labor economics" Eleventh Edition, Dubuque, IA: McGraw-Hill Education, 2015; A.Krause, U.Michael and T.Lubik "Modeling Labor Markets in Macroeconomics: Search and Matching" (December 18, 2014). FRB Richmond Working Paper No. 14-19; Stephen Machin and Alan Manning, "A Test of Competitive Labor Market Theory: The Wage Structure among Care Assistants in the South of England". Industrial and Labor Relations Review, 2004; J.M.Keynes The General theory of employment, interest and money // The Macmillan company of Canada, Limited, Toronto, 2015; U.Blien, F.Hirschenauer, and Thi Hong Van, P. (2010). Classification of regional labour markets for purposes of labour market policy. Papers in Regional Science, 89: 859-880.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida A.Korovkin, A.Fomina, L.Nizova va E.Sorokina, O.Naumov kabi olimlarning ilmiy faoliyatlarida tadqiq etilgan⁴. O'zbekistonda esa ishchi kuchi bozorida muvozanat borasidagi ba'zi masalalar Q.Abdurahmonov, E.Shadmanov, B.Mamaraximov, M.Mirzakarimova va U.Raximova, N.Olimova, Z.Gaibnazarova kabi olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan⁵.

Yuqoridagi tilga olingan iqtisodchilar o'zlarining ilmiy tadqiqotlarida ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni turli darajada talqin qilishgan bo'lib, "yashirin ishsizlik", gender nomuvofiqlik kabi masalalarning muvozanatga ta'sirini baholash nuqtayi nazaridan e'tibor qaratilmagan. Shu jihatlarga ko'ra ishchi kuchi bozorida muvozanat darajasi respublika va xorijlik iqtisodchi mutaxassislarining ilmiy faoliyatida o'rganilmagan, degan to'xtamga kelindi.

Ishchi kuchi bozorida talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar bo'yicha bahsli, yetarlicha ilmiy o'rganilmagan holatlar mavjud. Jumladan, uning mohiyati, tarkib topish xususiyatlari hamda asoslari xususida fikrlar shakllanmagan. Qolaversa, alohida xususiyatlarini inobatga olgan holda olib borilgan tadqiqot ishlari tor doirada qolmoqda.

Shularni inobatga olgan holda, mehnat bozorida yuqoridagi qayd etilgan muammolarni o'rganish zarurati ushbu dissertatsiya mavzusining muhimligini ko'rsatadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashning nazariy asoslarini takomillashtirishga oid ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

⁴ A.G. Korovkin "The Problems of Labor Supply and Labor Demand Adjustment on the Russian Labor Market" Studies on Russian Economic Development, 2011, Vol. 22, No. 2, pp. 177-190; Fomina A.S (2015), "Статистическое исследование оптимальности рынка труда как основы эффективного экономического развития регионов" диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук, «Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова, 21 p; L. M. Nizova and E. N. "Sorokina Problems of Balancing Supply and Demand in the Labor Market of the Republic of Mari El", ISSN 1075-7007, Studies on Russian Economic Development, 2019, Vol. 30, No. 4, pp. 462-466. © Pleiades Publishing, Ltd., 2019, Russian Text © The Author(s), 2019; O.Naumov "Balance of labor market in the context of domestic education development" Наука и освіта. - 2018. - №4. - С. 92-98.

⁵ Абдурахмонов К.Х. Меҳнат иқтисодиёти: Дарслик. - Т.: Иқтисодйот, 2018. - 628 б; Шадманов Э.Ш. "Мамакатни модернизациялаш жараёнда иқтисодиётни мувозанатли ва мугалосибни ривожлантиришининг асосий йўналишлари" 08.00.01 - «Иқтисодий назария» иқтисод фанлари доктори илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертация авторферати, Тошкент - 2011; Мамаракимов Б.Э. II Форум молодых ученых-экономистов "Макроэкономическая сбалансированность и комплексное социально-экономическое развитие", Узбекистан, 2013; Гаибнazarova З.Т. "Йилил иш Урилирини яратиб оркали экологик баркарор иқтисодиётга Уни буйича касабда уюшмалари стратегияси". Т.: Ношир, 2021, 113 бет; М.Мирзakarimova ва У.Рахимова "Талим хизматлари бозори ва меҳнат бозорини мувофиқлаштириш ёшлар бандлигини омилли сифатида" "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 1, январь-февраль, 2017 йил.

Tadqiqotning vazifalari:

ishchi kuchi bozorida muvozanatni ta'minlash zarurati va uning iqtisodiy mohiyati, shakllari, xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslash;

ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanatga real ish haqi ta'sirida o'zgaruvchi "yashirin ishsizlik"ning ta'sirini nazariy baholash;

gender nuqtayi nazaridan bandlik muvozanatini ta'minlash bo'yicha ilmiy taklif ishlab chiqish;

muvozanatni metodologik baholash bo'yicha adabiyotlarni ko'rib chiqish va ularni tizimlashtirish;

izohlovchi o'zgaruvchilarni ijtimoiy hamda iqtisodiy kabi guruhlagan holda ularning muvozanatni qanday o'zgartirishini ko'rsatish;

ishchi kuchiga talab sifati, miqdori va tarkibini talab darajasiga yetkazish d a xususiy sektorning imkoniyatlari d an foydalanish darajasini ochib berish;

O'zbekistonda ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklif o'rtasidagi muvozanat bilan bog'liq bo'lgan kattaliklar uchun ekonometrik modellar asosida o'rtamuddatli prognoz ko'rsatkichlarni ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekt bo'lib O'zbekiston Respublikasi ishchi kuchi bozorida talab va taklifning sifat, miqdor va tarkibiy jihatidan o'zgarishi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini ishchi kuchi bozorining amal qilishi, undagi talab va taklif muvozanatini ta'minlash jarayonida sodir bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Mazkur tadqiqot ishini bajarishda tahlil, ilmiy mushohadalash, sintez, induksiya, dialektik usul, deduksiya, qiyosiy taqqoslash, matematik va statistik usullar, ekonometrik tahlil hamda prognozlash usullariga murojaat qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanat" tushunchasining iqtisodiy mazmuni ishchi kuchi talabi va taklifning miqdor va sifat mezonlari bo'yicha o'zaro muvofiqligini ta'minlashda gender, hudud hamda tarmoq (soha) xususiyatlari jihatidan takomillashtirilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra mehnatga haq to'lash darajasining pastligi sababli "yashirin ishsizlik" shaklida namoyon bo'luvchi ish bilan bandlarning mehnat shartlari va sharoitini real ish haqining o'rtacha darajasiga muvofiq holda dinamik o'zgartirish tartibini kiritish orqali ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash asoslangan;

hududlardagi ishchi kuchi taklifi va bandligining o'zaro nisbatiga ko'ra guruhlash orqali ayol jinsiga mansub qismi bo'yicha miqdoriy jihatdan "past" ($1,145 \leq M^g \leq 1,154$), "o'rtam" ($1,132 \leq M^g \leq 1,140$), "yuqori" ($1,0 \leq M^g \leq 1,127$), erkak jinsiga mansub qismi bo'yicha "past" ($1,073 \leq M^g \leq 1,076$), "o'rtam" ($1,069 \leq M^g \leq 1,072$), "yuqori" ($1,0 \leq M^g \leq 1,065$) oraliqlarida ishchi kuchi bozorida gender jihatdan muvozanatni ta'minlash asoslangan;

O'zbekistondagi ishchi kuchi, iqtisodiy faol aholi hamda iqtisodiyotda

bandlar soni o'rtasidagi bog'liqlikning avtoregressiya modellari asosida ishchi kuchi bozori uchun 2028-yilga qadar o'rtamuddatli muqobil prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ish kuchi taklifi faoliyat yuritayotgan korxonada va tashkilotlar sonidan kelib chiqqan holda hududlarga guruhlandi;

O'zbekiston ishchi kuchi bozorida muvozanatni ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar tahlil qilinib, uni mustahkamlash bo'yicha ham nazariy, ham amaliy takliflar ishlab chiqildi;

sanoatlashgan davlatlarning ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanatni saqlab turish bo'yicha samarali tajribalari tahlil qilinib, O'zbekistondagi vaziyatga tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar berildi;

ishchi kuchi bozorida muvozanatga taalluqli ko'rsatkichlar uchun o'rtamuddatli prognozlar hisoblab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchilligi. Ushbu tadqiqotdan olingan ilmiy natijalarning ishonchilligi, uni bajarish mobaynida umumiy tirof etilgan uslubiyat va usullardan foydalanilganligi, rasmiy ma'lumot bazalaridan, xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki, Jahon Banki hamda Xalqaro mehnat tashkilotlarining saytlaridan statistika ma'lumotlari to'planilganligi, shuningdek, tadqiqot ilmiy yangiliklarining vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari tadqiqot davomida tuzilgan nazariy xulosalar va tavsiyalar asosida ilmiy ahamiyatga ega. Ushbu takliflar O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirlikning bandlik siyosati bilan bog'liq vazifalarni o'rtamuddatli istiqbolda bajarish uchun qo'llanilishi mumkin. Shuningdek, olingan ilmiy-nazariy natijalardan "ijtimoiy-iqtisodiyot va davlat siyosati" "Iqtisodiyot nazariyasi", "Makroiqtisodiyot", "Mehnat iqtisodiyoti" fanlaridan o'quv qo'llammasi yoki darsliklarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanat" tushunchasining iqtisodiy mazmunini ishchi kuchi talabi va taklifning miqdor va sifat mezonlari bo'yicha o'zaro muvofiqligini ta'minlashda gender, hudud hamda tarmoq (soha) xususiyatlari jihatidan takomillashtirishga oid nazariy va uslubiy materiallardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Ijtimoiy-iqtisodiyot va davlat siyosati" nomli o'quv qo'llammani tayyorlashda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2024 yil 25 apreldagi 111-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda ishchi kuchi talabi va taklifning miqdor va sifat mezonlari bo'yicha o'zaro muvofiqligini ta'minlashda gender, hudud hamda tarmoq (soha)

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan jurnallarda 6 ta ilmiy maqola (5 ta mahalliy, 1 ta xalqaro nashrlarda), 5 ta ma'ruza tezislari ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobativdan o'tkazilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Mazkur dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, jami 133 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti shakllantirilgan. Shuningdek, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari izohlangan hamda tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shu bilan birga, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar hamda dissertatsiya tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanatning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida ishchi kuchi bozoridagi talab va taklifi o'rtasida muvozanatni ta'minlash zarurati, uning iqtisodiy mazmuni va shakllari bilan bog'liq ilmiy qarashlar tahlil etilgan.

Ishchi kuchi bozoridagi ishchi kuchiga bo'lgan talab hamda uning taklifi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash asosiy muammolardan biri bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida uning nazariy hamda uslubiy asoslarini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanatni tadqiq etish ularning har ikki tomonini milliy hamda jahon tajribasi asosida alohida o'rganishni talab etadi. Muvozanatni ta'minlash jarayoni bu yerda ishchi kuchiga bo'lgan talabning miqdoriy hamda sifat xususiyatlari va makroiqtisodiy darajada uning taklifi o'rtasidagi muvofiqlikni izlashni anglatadi.

Boshqa iqtisodiy tizimlardan farqli ravishda bozor iqtisodiyoti sharoitida rejali asosda xo'jalik yuritilmasdan, balki davlat tomonidan yo'nalishlar va maqsadlar belgilanadi hamda minimal darajada tartibga soluvchi sifatida namoyon bo'ladi. Boshqa bozorlar kabi ishchi kuchi bozori ham o'zini-o'zi bozor mexanizmlari asosida tartibga solishi hamda vaqti-vaqti bilan muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin. Shu sababdan bozor uchun uzoq muddatli mo'ljallarda davlat yordamiga kelishi va vektorlarni belgilab berishi zarur.

Demografik risklar, dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining shart-sharoitlari va imkoniyatlari bir-biridan farq qilganligi sababli, ularning ishchi kuchi bozoridagi ba'zilarida taklifni talabga, ayrimlarida esa talabni taklifga moslashtirish holatlari kuzatiladi. Jumladan, "Germaniyada ishchi kuchi taqchilligi 2020-yilda 2,4 mln kishini tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2030-yilgacha 10 mln kishiga yetishi prognoz qilingan. Xitoy 2020-yilda o'rtacha 55,2-75,3 mln ishchi kuchi ortiqchaligini boshdan kechirgan bo'lsa, 2030-yilga borib bu 24,5 millionlik ishchi

xususiyatlari jihatidan takomillashtirilgan ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanat tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

nazariy-uslubiy yondashuvga ko'ra mehnatga haq to'lash darajasining pastligi sababli "yashirin ishsizlik" shaklida namoyon bo'luvchi ish bilan bandlarning mehnat shartlari va sharoitini real ish haqining o'rtacha darajasiga muvofiq holda dinamik o'zgartirish tartibini kiritish orqali ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "20 ming tadbirkor - 500 ming malakali mutaxassis" dasturini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 7-iyuldagi 279-son qarorini ishlab chiqishda tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan yaratilgan ish o'rinlari soni ko'ra kategoriyalash va shu asosda hamkorlik shartnomalari tuzish orqali hududlarda aholi bandligini ta'minlashni rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishda foydalanilgan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024 yil 27 yanvardagi 01/00-03/28-778-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi iqtisodiyotda samaradorlikning o'sishiga erishish, bunda yuqori qo'shilgan qiymat va ishchi kuchiga bo'lgan talab mavjud sektorlarga alohida e'tibor berish bilan bog'liq chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

hududlardagi ishchi kuchi taklifi va bandligining o'zaro nisbatiga ko'ra guruhlash orqali ayol jinsiga mansub qismi bo'yicha miqdoriy jihatdan "past" ($1,145 \leq M^* \leq 1,154$), "o'rtacha" ($1,132 \leq M^* \leq 1,140$), "yuqori" ($1,0 \leq M^* \leq 1,127$), erkak jinsiga mansub qismi bo'yicha "past" ($1,073 \leq M^* \leq 1,076$), "o'rtacha" ($1,069 \leq M^* \leq 1,072$), "yuqori" ($1,0 \leq M^* \leq 1,065$) oraliqlarida ishchi kuchi bozoridagi gender jihatdan muvozanatni ta'minlash taklifi 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2021-2022-yillarda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 27-yanvardagi 01/00-03/28-778-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifning amaliyotga joriy etilishi ishchi kuchi bozoridagi gender jihatdan muvozanatni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

O'zbekistondagi ishchi kuchi, iqtisodiy faol aholi hamda iqtisodiyotda bandlar soni o'rtasidagi bog'liqlikning avtoregressiya modellari asosida ishchi kuchi bozori uchun 2028 yilga qadar ishlab chiqilgan o'rtacha muddatli muqobil prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi faoliyatida foydalanilgan O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024 yil 27 yanvardagi 01/00-03/28-778-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu taklifdan foydalanish o'rtacha muddatlar uchun ishchi kuchi bozoridagi talab va taklif o'rtasidagi farq kattaliklari prognozlarini ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobativiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida aprobativdan o'tkazilgan.

kuchi yetishmovchiligiga aylanishi prognoz qilingan⁶. Ushbu holat O'zbekiston iqtisodiyoti uchun ham begona emas. Ishchi kuchi soni bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo hududida yetakchi o'ringa, MDH davlatlari o'rtasida 3 o'ringa ega bo'lib, ularning iqtisodiyot tarmoqlarida samarali bandlegi ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, ishchi kuchi resurslarining samarali bandlegini ta'minlash, ularni tartibga solish, yashirin ishsizlik darajasini kamaytirish, ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, ishchi kuchi sifatini yaxshilash, mehnat unumdorligini oshirishga erishish dolzarb muammo hisoblanadi.

Ma'lumki, ishchi kuchi bozorida talab va taklif o'rtasidagi muvozanatni bandlek darajasi orqali ifodalash mumkin. Tahlillarga ko'ra, ishchi kuchi bozorida talab va taklifning bir-biriga muvofiq kelishi miqdor va sifat jihatdan farqlanadi.

Muallif tomonidan bu borada olib borilgan tadqiqotlarga asosan muvozanatga erishish holati o'rganilib, ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanat tushunchasining iqtisodiy mazmuni ishchi kuchi talabi va taklifning miqdor va sifat mezonlari bo'yicha o'zaro muvofiqligini ta'minlashda gender, hudud hamda tarmoq (soha) xususiyatlari jihatidan takomillashtirilgan (1-rasm).


1-rasmdan ko'rinadiki, ishchi kuchi bozorida muvozanat jarayonini ta'minlash birinchi navbatda miqdor va sifat mezonlari orqali namoyon bo'lsa, mazkur muvofiqlikni ta'minlashning keyingi bosqichlarida gender, hudud hamda tarmoq (soha) xususiyatlarining ta'sirini hisobga olish lozim bo'ladi. Shunga ko'ra, ishda ishchi kuchi bozoridagi talab va taklifning miqdoriy farqi va omillar nomuvofiqligi ta'siridagi ishsizlikning namoyon bo'lishi tadqiq etilgan.

1-rasmga ko'ra, ishchi kuchi bozorida talab va taklif o'rtasida ikki xil muvozanatni farqlash mumkin: 1) sotilgan (*ishchi kuchi taklifi*) va sotib olingan (*ishchi kuchiga talab*) ish kuchi o'rtasida mutlaq muvozanat (bu 2-rasmining I qismida ham o'z aksini topgan) va 2) sotib olinmagan (*bo'sh ish o'rinlari*) va yollanmagan (*ishsizlar*) ish kuchi o'rtasida nisbiy muvozanat (bu 2-rasmining II va III qismlarida ham aks ettirilgan). Mutlaq muvozanatda talab va taklif doim bir-biriga teng hisoblanadi. Nisbiy muvozanatda talab va taklif bir-biriga nisbatan turli darajada farq qilishi mumkin.

Agar 2-rasmining II hamda III qismlaridagi holatlar kuzatilmasa, ish izlovchilar soni mavjud ish o'rinlari soniga to'liq mos keladigan to'liq bandlek holatini anglatadi. Ushbu ssenariyda ishsizlik mavjud emas, chunki ish izlayotgan barcha shaxslar o'zlar uchun munosib ish topgan hisoblanadi. Mavjud ish o'rinlari ishchilar bilan o'lasligini real ish haqi past ekanligi, mobilikni cheklaydigan omillar, axborot yetishmasligi va malaka to'g'ri kelmasligi kabi omillar bilan bog'lash mumkin (2-rasm, II qism). Agarda ushbu bo'sh ish o'rinlari ishsizlarning bir qismi tomonidan band qilindi deylik, undan qolgan ishsizlar (2-rasm, III qism) uchun ish o'rinlarining mavjud bo'lasligini ishchi kuchiga bo'lgan talabning pastligi bilan izohlash mumkin.

⁶ The Boston Consulting Group hisoboti, "Global ishchi kuchi inqirozi", 2020 <https://www.eia.europa.eu/sites/default/files/2023-03/eurcs-labour-shortages-report-2022.pdf>

1-rasm. Ishchi kuchi bozorida muvozanat jarayoni⁷



TAKLIF

TALAB

III	Talab va taklifning miqdoriy farqi ta'siridagi ishsizlik	Bo'sh ish o'rinalari yo'q
	<i>Ishchi kuchiga bo'lgan talab kamligi sababli vujudga kelgan ishsizlik</i>	
II	Omillar nomuvofiqligi ta'siridagi ishsizlik	Bo'sh ish o'rinalari mavjud
	<i>Omil (ish haqi pastligi, mobillik, axborot yetishmasligi, malaka to'g'ri kelmasligi va h.k.)lar nomuvofiqligi sababli vujudga kelgan ishsizlik</i>	
I	BANDLIK (ishga qabul qilinganlar=to'ldirilgan vakansiyalar)	

2-rasm. Talab va taklifning miqdoriy farqi va omillar nomuvofiqligi ta'siridagi ishsizlikning namoyon bo'lishi*

Matematik jihatdan yalpi ishchi kuchiga talab (*YalKTal*) (bo'sh ish o'rinalari + iqtisodiyotda bandlar)ning yalpi ishchi kuchi taklifi (*YalKTak*)ga nisbati 1 ga teng bo'lgan holat ishchi kuchi bozoridagi mutlaq muvozanatni anglatadi:

$$\frac{YalKTal}{YalKTak} = 1 \quad (1)$$

Ammo real hayotda bunday bo'lishi imkonsiz hisoblanadi. Iqtisodiyotda tabiiy ishsizlik doim mavjudligi sababli bunga yo'l bermaydi:

$$\frac{YalKTal}{YalKTak} > 1 \quad (2)$$

2-formuladagi kabi holatda, ya'ni ishchi kuchiga bo'lgan yalpi talab uning yalpi taklifidan katta bo'lganda bo'sh ish o'rinalari iqtisodiy faol aholi soniga nisbatan ko'proq bo'ladi. Ushbu ko'rsatkich 1 dan qancha kattalasha, bir tomondan ishchilar uchun tanlov imkoniyatini oshiradi va ikkinchi tomondan ish taklif qiluvchilar o'rtasidagi raqobatning oshishiga, natijada esa ish haqi darajasining ham oshishiga olib keladi. Nazariy jihatdan qaraganda bu juda oddiy jarayondek ko'rinadi. Ammo bunga erishish uchun mamlakatda albatta kichik va o'rta tadbirkorlik sinfining ulushini oshirishga qaratilgan, samarali iqtisodiy siyosat yuritish talab etiladi:

$$\frac{YalKTal}{YalKTak} < 1 \quad (3)$$

3-formulada berilgani kabi holatda, umumiy ishchi kuchi taklif etilayotgan jami ish o'rinalariga nisbatan miqdor jihatdan ustun kelsa, ishchilar "imkoniyat ustunligi"ni yo'qotadi va natijada ishsizlik yuzaga keladi. 2-formuladagi holatda ham ishsizlik mavjud bo'lishi mumkin. Bunda masala ko'proq subyektiv ahmiyat

kasb etadi. Jumladan, ish tanlovida ikkilanish, ish o'rinalari ko'pligidan ish joyini tez-tez o'zgartirish, friksion va tarkibiy ishsizlik sababli tabiiy ravishda ishsizlik mavjud bo'lishi mumkin. Yuqoridagi 2- hamda 3-formulalar orqali olinadigan natijalarning chegaralaridagi ta'sirlari iqtisodiy o'sish hamda qolgan iqtisodiy jarayonlar uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Yuqoridagi modelning O'zbekiston ishchi kuchi bozorida amal qilishini Milliy vakansiyalar bazasi rasmiy web-saytidan foydalangan holda indukstion tahlil yordamida dalillashirish mumkin. O'zbekistonda 2023-yil boshida 1,3 mln ishsizlar mavjud bo'lgan bo'lsa, 2024-yil 18-yanvar holatiga ushbu platforma orqali 301 264 ta ish o'rinalari taklif etilgan. Bu miqdor jihatdan ishchiga bo'lgan talab uning taklifiga nisbatan mutlaq muvozanat emasligini namoyon etadi.

Deyarli 300 ming birlik ishchi kuchi taklifini ish haqi miqdori bo'yicha quyidagicha tabaqalashirish mumkin:

980 mingdan 2 mln so'mgacha ish haqi uchun 275 ming atrofida;

2 mln dan 3 mln so'mgacha ish haqi uchun 15 mingdan ko'proq;

3 mln dan 4 mln so'mgacha ish haqi uchun 5 mingdan ko'proq;

4 mln dan 5 mln so'mgacha ish haqi uchun 2 mingdan ko'proq;

5 mln so'm va undan yuqori ish haqi uchun 1 mingdan ko'proq.

Mingdan ortiq 5 mln va undan yuqori ish takliflari uchun yuqori malaka talab etilishi tabiiy deb qaraydigan bo'lsak, bunga 1,3 mln ishsizlar orasidan munosib nomzodlar chiqmayotganligini ishchi kuchi bozoridagi talab va taklif o'rtasidagi sifat jihatidan muvozanat holatini ta'minlashning past darajada ekanligini anglatadi. Shuningdek, taklif etilayotgan vakansiyalarning 45% uchun nomzodlardan oliy ma'lumot talab etilmoqda.

Taklif etilayotgan ish o'rinalarining deyarli yarmi Toshkent viloyati hamda Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelmoqda. Har bir bo'sh o'ranga to'g'ri keluvchi ishsizlar soni Qoraqalpog'iston Respublikasida Toshkent shahridan 57 barobar katta bo'lib, ushbu holat ishchi kuchi bozorida talab va taklif o'rtasida hududiy jihatdan ham muvozanat holatiga erishilmaganligini anglatadi.

Tarmoq (soha)lar bo'yicha yaratilayotgan ish o'rinalarining talabga nisbatan muvofiqligini solishtirilganda ham muayyan farqlanishlar ko'zga tashlanadi. Jumladan, qurilish hamda IT sohalarida taklif etilayotgan o'rtacha bir korxonaga nisbatan to'g'ri kelgan ish o'rinalari sonining boshqa sohalaridan ortda qolayotganini kuzatish mumkin. Bu holatda esa tarmoq (soha)lar bo'yicha ham ishchi kuchi talabi va taklifi o'rtasidagi muvozanat holati ijobiy emas, deyish mumkin.

Shuningdek, tadqiqot ishida ishchi kuchi talab va taklif o'rtasidagi muvozanatning gender jihatidan xususiyatlari o'rganilib, erkak va ayol jinsiga mansub ishchi kuchi talabi va taklifining ko'plab omillar, jumladan: ish haqi darajasidagi farqlar, ijtimoiy va madaniy me'yorlar, siyosat va qonunchilik, iqtisodiy tavsifdagi ta'sirlarga bog'liqligi aniqlandi. Ushbu omillar ishchi kuchi bozorida gender, talab va taklifning murakkab o'zaro ta'sirini yuzaga keltirib, ularni hisobga olish samarali iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, 2023-yil 1-dekabr dan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududida

* Muallif tomondan tuzilgan.

mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori oyiga 1 050 000 so'm belgilangan⁹. Mamlakatdagi maxsus (oliy yoki o'rta maxsus) ma'lumot darajasi, alohida malaka yoki ko'nikma talab qilinmaydigan deyarli barcha kasb yoki lavozimlarga (masalan, yordamchi ishchi, qorovul, farrosh, yuk avtomashina haydovchisi va h.k.) ushbu miqdordan kelib chiqqan holda ish haqi belgilanib, ularning majburiyatlari, malaka va ko'nikmalari, ish rejimi va sharoitlari ham deyarli bir xil tarzda ifodalanadi. Misol tariqasida O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Milliy vakansiyalar bazasidagi vakansiyalar ro'yxatida joylashtirilgan yordamchi ishchi to'g'risidagi ma'lumotlarni keltirish mumkin (1-jadval).

1-jadval
Milliy vakansiyalar bazasidagi vakansiyalar ro'yxatida joylashtirilgan yordamchi ishchi to'g'risidagi ma'lumotlar¹⁰

Yordamchi ishchi	Ish haqi: 1 050 000 so'm dan
"NARPAY KUMUSH IDEAL" MChJ (STIR: 310100874)	Samarqand viloyati, Narpay tumani
Ish stavkasi: 1	
Majburiyatlar	O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 25-moddasiga, shu jumladan, mehnat shartnomasiga, ichki tartib-qoidalar va mehnat me'yorlariga, mehnatni muhofaza qilish talablariga, sanitariya qoidalar va boshqalarga rioya qilish
Malaka va ko'nikmalar	Staj va diplom talab qilinmaydi
Talab etiladigan mutaxassislik yo'nalishlari	Talab qilinmaydi
Ish rejimi	To'liq ish kuni
Mehnat munosabatlarining huquqiy shakli	Mehnat shartnomasi asosida ishlash
Ish sharoitlari	Haftasiga 40 soat, ya'ni dushanbadan jumagacha soat 09:00 dan 18:00 gacha, tushlik 13:00 dan 14:00 gacha, dam olish kunlari shamba va yakshamba
Taklif etiladigan imtiyozlar	yo'q

Shuni ta'kidlash lozimki, "Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi"¹¹. Lekin, oilalar tarkibi, ularning mehnatga layoqatli ulushi, moddiy holat va boshqa omillar ta'sirida mazkur miqdor doimo ham iste'mol ehtiyojlarini to'liq qondirmasligi mumkin. Buning natijasida ishchi oldida o'z daromadi darajasini oshirishning quyidagi bir necha yo'llari mavjud bo'ladi: mazkur ish haqiga ko'ngan holda, imkon qadar ish joyida kamroq bo'lish (to'liq bo'lmagan ish kumida ishlash); mazkur ish haqi to'lanuvchi asosiy stavkada ishlash bilan bir qatorda norasmiy holda qo'shimcha stavkada ish bilan band bo'lish (odatda yuqoridagi ikki

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 17-noyabrdagi PF-196-son "Ish haqi, pensiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoni. - <https://lex.uz/docs/6665682>
¹⁰ <https://ish.mehnat.uz/vacancies/43408129>
¹¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 42-modd. - <https://lex.uz/docs/6445145>

holat farroshlarning ish amaliyotida ko'p uchraydi);

to'lanadigan ish haqi darajasiga muvofiq tarzda ishchi tomonidan past darajadagi ish sifati va mehnat unumdorligini ta'minlash va h.k.

Yuqoridagi holatlarning barchasi mazkur ishchi va xodimlarning "yashirin ishsizlik" shaklidagi bandligini anglatadi. Shunga ko'ra, tadqiqotchining fikricha, mehnatga haq to'lash darajasining pastligi sababli "yashirin ishsizlik" shaklida namoyon bo'luvchi ish bilan bandlarning mehnat shartlari va sharoitlari real ish haqining o'rta darajasiga muvofiq holda dinamik o'zgartirish tartibini kiritish maqsadga muvofiq.

Real ish haqi – bu nominal ish haqiga sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar va xizmatlar miqdorini anglatib, nominal ish haqining "sotib olish qobiliyati"ni ifodalaydi. Real ish haqi nominal ish haqi hamda tovar va xizmatlarning narx darajasiga bog'liq¹². Ish haqining davlat tomonidan tartibga solinishi sharoitida nominal ish haqi darajasi nisbatan uzoq vaqt barqaror saqlanib tursada, tovar va xizmatlarning narx darajasining beqarorligi real ish haqi darajasining tebranishiga, aksariyat holatlarda pasayishiga olib keladi. Bu esa, ayniqsa, mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori darajasida ish haqi oluvchilarning real daromadiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Ish beruvchilarga real ish haqining o'rta darajasiga muvofiq holda "yashirin ishsizlik" shaklida namoyon bo'luvchi ish bilan bandlarning mehnat shart-sharoitiga (ish rejimini qulaylashtirish, ish sharoitlarining moslashuvchanligini oshirish, imtiyozlarni tatbiq etish va h.k.) dinamik o'zgartirishlar kiritish huquqining berilishi ishchi kuchi talabining barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ishchi kuchi bozoridagi talab va taklif o'rnatidagi muvozanatni ta'minlash imkonini yaratadi.

Dissertatsiyaning "O'zbekiston ishchi kuchi bozorida talab va taklif hamda muvozanatning amaldagi holati tahlili" deb nomlangan ikkinchi bobida ishchi kuchiga bo'lgan talab va uning taklifi dinamikasi hamda ushbu ikki tomon o'rnatidagi asosiy muvozanat holatlari tahlil qilingan.

O'zbekistonda ishchi kuchi bozorida talab va taklif o'rnatidagi o'zaro muvofiq muvozanatni miqdoriy jihatdan taqqoslama tahlillar orqali ko'rib chiqish mumkin (2-jadval).

Quyidagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2015–2022-yillar oralig'ida yalpi ishchi kuchi taklifi hamda unga bo'lgan talab o'zgarishlari o'rnatidagi farq deyarli ikki barabarga yetgan. Shu jumladan, ishchi kuchiga bo'lgan talab kamligi sabab ishsizlik ham ikki marta oshganini kuzatish mumkin. Ya'ni, iqtisodiyot ortib borayotgan ishchi kuchiga nisbatan ish o'rinlarini yaratishda ikki marta ortda qolmoqda. Yaratilgan ish o'rinlari berilgan vaqt oralig'ida faqat 2018- hamda 2020-yillarda manfiy ko'rsatkichni qayd etgan. 2021-yilda eng yuqori cho'qqisi (302500 o'rin)ga chiqqan bo'lsa, 2022-yilda keskin pasaygan holda eng past (167300 o'rin) natijani qayd etgan. Yaratilgan ish o'rinlari 2015-yilga nisbatan mos ravishda 2021–2022-yillarda 93893 o'rin ko'p va -42777 o'rin kam natija ko'rsatgan.

¹² Словарь финансовых и банковских терминов. - https://finustugi.ru/glossary/realnaya_zarabotnaya_plata

2-jadval
O'zbekiston Respublikasi ishchi kuchi bozorida talab va taklifning
agregat ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar¹³

Yillar	Bandlar, ming kishi	Yaratilgan ish o'rinlari to'lishi, ming o'rin	Bo'sh ish o'rinlar, ming o'rin	Yaratilgan ish o'rinlari, ming o'rin	Ishchi kuchiga yalpi talab, ming kishi	Ishchi kuchi yalpi talab, ming kishi	Ishchi kuchi talab, ming kishi	Ishsizlar, ming kishi	Yalpi ishchi kuchi talab va taklifi unga nisbati	8	7	6	5	4	3	2	1	Ishchi kuchiga talab kamligi sababli ishsizlik, ming kishi	10
2015	13058,3	239,9	38325	278225	13096,6	13767,7	1:1,051	709,4	1:1,051	709,4	671,1	671,1	709,4	709,4	671,1	671,1	671,1	671,1	671,1
2016	13298,4	240,1	67508	307608	13365,9	14022,4	1:1,049	724,0	1:1,049	724,0	656,5	656,5	724,0	724,0	656,5	656,5	656,5	656,5	656,5
2017	13520,3	221,9	70043	291943	13590,3	14357,3	1:1,056	837,0	1:1,056	837,0	767,0	767,0	837,0	837,0	767,0	767,0	767,0	767,0	767,0
2018	13273,1	-247,2	78049	-169151	13351,1	14641,7	1:1,096	1368,6	1:1,096	1368,6	1290,6	1290,6	1368,6	1368,6	1290,6	1290,6	1290,6	1290,6	1290,6
2019	13541,1	268,0	68351	336351	13609,5	14876,4	1:1,093	1335,3	1:1,093	1335,3	1267,0	1267,0	1335,3	1335,3	1267,0	1267,0	1267,0	1267,0	1267,0
2020	13236,4	-304,7	81635	-223065	13318,0	14797,4	1:1,111	1561,0	1:1,111	1561,0	1479,4	1479,4	1561,0	1561,0	1479,4	1479,4	1479,4	1479,4	1479,4
2021	13538,9	302,5	69688	372188	13608,6	14980,7	1:1,100	1441,8	1:1,100	1441,8	1372,1	1372,1	1441,8	1441,8	1372,1	1372,1	1372,1	1372,1	1372,1
2022	13706,2	167,3	68148	235448	13774,3	15038,9	1:1,091	1332,7	1:1,091	1332,7	1264,6	1264,6	1332,7	1332,7	1264,6	1264,6	1264,6	1264,6	1264,6
Δ	647,9		29823	-42777	677,7	1271,2		623,3		623,3	593,5	593,5	623,3	623,3	593,5	593,5	593,5	593,5	593,5

Miqdor jihatdan ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi o'zaro muvozanat ($M_{p.o.v}$) holati tahlilini quyidagi ayol jinsiga mansub ishchi kuchi taklifining qondirilgan talab (bandlik)ka nisbatining hududlar bo'yicha to'g'ri kelishini ifodalovchi jadval bilan davom ettirish mumkin. Ushbu ko'rsatkichni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiq:

$$A_{taklif/talab} = \sum_{t+n}^t \left(\frac{Y_{aIKB}}{Y_{aIKB}} \right) / n \quad (4)$$

Bu yerda:
 $A_{taklif/talab}$ – ayol jinsiga mansub ishchi kuchi taklifining qondirilgan talab (bandlik)ka nisbati;
 Y_{aIKT} – ayol jinsiga mansub ishchi kuchi taklifi;
 Y_{aIKB} – ayol jinsiga mansub ishchi kuch bandligi;
 n – vaqt oralig'i.
 Muvozanat $1,145 \leq M_p^a \leq 1,154$ oraliqda "past", $1,132 \leq M_{or}^a \leq 1,140$ oraliqda "o'rt", $1,0 \leq M_y^a \leq 1,127$ oraliqda "yuqori" hisoblanadi.

Quyidagi 3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ayol jinsiga mansub ishchi kuchining iqtisodiyotda band bo'la olish imkoniyatlari Toshkent shahri, Navoiy hamda Toshkent viloyatlarida qolgan hududlarga nisbatan yuqoriroq hisoblanadi. Ushbu tahlil bo'yicha Sirdaryo, Farg'ona, Xorazm, Namangan, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi o'rtalari darajadagi ko'rsatkichlarni qayd etgan.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Quy guruhga kiruvchi Jizzax, Samarqand, Andijon, Surxondaryo hamda Qashqadaryo viloyatlari ayollarning iqtisodiyotda faollik darajasiga boshqa hududlarga nisbatan pastroq javob qaytarmoqda.

3-jadval
Hududlarda ayol jinsiga mansub ishchi kuchi taklifi va bandligining o'zaro nisbati bo'yicha guruhlanishi (2017-yildan buyon o'rtacha)¹⁴

Guruhlar	Hududlar	Koeffitsiyent
Yuqori	Toshkent shahri	1,086
	Navoiy	1,119
	Toshkent	1,127
O'rt	Buxoro	1,132
	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1,133
	Namangan	1,134
	O'zbekiston Respublikasi	1,135
	Xorazm	1,135
Past	Farg'ona	1,140
	Sirdaryo	1,140
	Jizzax	1,145
	Samarqand	1,149
	Andijon	1,151
	Surxondaryo	1,153
	Qashqadaryo	1,154

Ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi o'zaro muvozanat holati tahlilini quyidagi erkak jinsiga mansub ishchi kuchi taklifining qondirilgan talab (bandlik)ka nisbatining hududlar bo'yicha to'g'ri kelishini ifodalovchi jadval bilan davom ettirish mumkin. Ushbu ko'rsatkichni hisoblash uchun quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiq:

$$E_{taklif/talab} = \sum_{t+n}^t \left(\frac{Y_{aIKT}}{Y_{aIKB}} \right) / n \quad (5)$$

Bu yerda:
 $E_{taklif/talab}$ – erkak jinsiga mansub ishchi kuchi taklifining qondirilgan talab (bandlik)ka nisbati;
 Y_{aIKT} – erkak jinsiga mansub ishchi kuchi taklifi;
 Y_{aIKB} – erkak jinsiga mansub ishchi kuch bandligi;
 n – vaqt oralig'i.
 Muvozanat $1,073 \leq M_p^e \leq 1,076$ oraliqda "past", $1,069 \leq M_{or}^e \leq 1,072$ oraliqda "o'rt", $1,0 \leq M_y^e \leq 1,065$ oraliqda "yuqori" hisoblanadi.

Quyidagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent shahri hamda Navoiy viloyatlarida erkak jinsiga mansub ishchi kuchlari boshqa hududlarga nisbatan ko'proq ish topish imkoniyatiga ega. Ushbu holat Andijon, Buxoro, Jizzax,

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalanib holda muallif tomonidan tuzildi.

Toshkent hamda Qashqadaryo viloyatlari uchun o'rtacha darajada bo'lsa, Samarqand, Sirdaryo, Xorazm, Namangan, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida biroz yomonroq ko'rsatkichni qayd etgan.

4-jadval
Hududlarda erkak jinsiga mansub ishchi kuchi taklifi va bandligining o'zaro nisbati bo'yicha guruhlanishi (2017-yildan buyon o'rtacha).¹⁵

Guruhlar	Hududlar	Koeffitsiyent
Yuqori	Toshkent shahri	1,064
	Navoiy viloyati	1,065
	Andijon viloyati	1,069
	Buxoro viloyati	1,070
	Jizzax viloyati	1,071
O'rta	O'zbekiston Respublikasi	1,071
	Toshkent viloyati	1,072
	Qashqadaryo viloyati	1,072
	Samarqand viloyati	1,073
	Sirdaryo viloyati	1,073
Past	Xorazm viloyati	1,073
	Namangan viloyati	1,073
	Farg'ona viloyati	1,074
	Surxondaryo viloyati	1,074
	Qoraqalpog'iston Respublikasi	1,076

Navbatdagi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi o'zaro muvozanat holati tahlilini quyidagi umumiy ishchi kuchi taklifining unga bo'lgan talabni shakllantiruvchilarga nisbatining hududlar bo'yicha to'g'ri kelishini ifodalovchi jadval bilan amalga oshirish mumkin. Ushbu tahlilni amalga oshirish uchun quyidagicha formuladan foydalanish maqsadga muvofiq:

$$N_{YakTak}/firma = \sum_{t+n} \left(\frac{Y_{YakTak}}{F} \right) / n \quad (6)$$

Bu yerda:

$N_{YakTak}/firma$ – umumiy ishchi kuchi taklifining o'rtacha bir korxonaga va tashkilotga to'g'ri kelishi;

$YakTak$ – umumiy ishchi kuchi taklifi;

F – korxonaga va tashkilotlar soni;

n – vaqt oralig'i.

Muvozanat $0,048 \leq M_p \leq 0,063$ oraliqda "past", $0,034 \leq M_o \leq 0,047$ oraliqda "o'rta", $0,0 \leq M_y \leq 1,033$ oraliqda "yuqori" hisoblanadi.

¹⁵ Muallif tomonidan tuzildi.

5-jadval
Hududlardagi ishchi kuchi taklifining faoliyat yuritayotgan korxonaga va tashkilotlar soniga nisbati bo'yicha guruhlanishi (2017-yildan buyon o'rtacha)¹⁶

Guruhlar	Hududlar	Koeffitsiyent
Yuqori	Toshkent shahri	0,018
	Sirdaryo viloyati	0,033
	Navoiy viloyati	0,034
	Jizzax viloyati	0,037
	Toshkent viloyati	0,040
O'rta	O'zbekiston Respublikasi	0,041
	Buxoro viloyati	0,043
	Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,045
	Andijon viloyati	0,047
	Xorazm viloyati	0,047
Past	Namangan viloyati	0,049
	Farg'ona viloyati	0,052
	Qashqadaryo viloyati	0,057
	Samarqand viloyati	0,059
	Surxondaryo viloyati	0,063

